QASHQADARYO VILOYATI NISHON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 20-fevral | 66-4-65-Q/25 | Nishon tuman hokimligi

Nishon tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2024-y., 03/24/900/0053-son) 8*-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022 y., 09/22/172/0298-son)* talablariga asosan Nishon tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining *(O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda)* 6- moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Nishon tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2.Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Raxmanov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (F.Mamatov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (A.Xalilov)larga tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Aramov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Tog‘ayev**

Nishon tuman hokimining
2025-yil 20-fevraldagi
66-4-65-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	Tumandagi “Baynalminal” MFY hududidan o'tuvchi 4P-89 avtomobil yo'lining17-18 km oralig`ida (Mahalla binosiga kirish ko`chasi boshidan)	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”